



XALQARO STANDARTLARGA O'TISH SHAROITIDA TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA XARAJATLAR HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH

IMPROVING COST ACCOUNTING AND AUDITING IN TEXTILE ENTERPRISES UNDER THE CONDITIONS OF TRANSITION TO INTERNATIONAL STANDARDS

¹Ismailov Naufal
Nadirovich

¹Farg'ona davlat texnika universiteti mustaqil izlanuvchisi.

E-mail: ismailov.naufal@mail.ru

Annotatsiya Annotation

Uzb. - To'qimachilik sanoati milliy iqtisodiyotda muhim o'rin tutadigan va ko'plab insonlarning bandligini ta'minlaydigan yirik tarmoqlardan biri hisoblanadi. Ushbu soha o'zining o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turib, ishlab chiqarish jarayonlarining murakkabligi, katta hajmdagi xomashyo va yarim tayyor mahsulotlar bilan ishlash, hamda ko'plab xarajatlarni hisoblashni talab qiladi. O'zgarib borayotgan global iqtisodiy sharoit va xalqaro bozor talablariga javoban to'qimachilik korxonalarini o'z faoliyatini yanada takomillashtirishga majburdir. Ayniqsa, xalqaro moliyaviy va korporativ boshqaruv standartlariga o'tish jarayoni korxonalar boshqaruv tizimining sifat jihatidan yangi pog'onaga ko'tarilishini talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, xarajatlar hisobi va audit tizimini samarali tashkil etish korxona faoliyatining samaradorligini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada Xalqaro standartlarga o'tish sharoitida to'qimachilik korxonalarida xarajatlar hisobi va auditini takomillashtirish haqida ma'lumotlar berilgan.

Eng. - The textile industry is one of the largest industries that plays an important role in the national economy and provides employment to many people. This industry is characterized by its own characteristics, which include the complexity of production processes, work with large volumes of raw materials and semi-finished products, and the calculation of many costs. In response to the changing global economic conditions and international market requirements, textile enterprises are obliged to further improve their activities. In particular, the transition to international financial and corporate governance standards requires the management system of enterprises to rise to a qualitatively new level. In this regard, the effective organization of a cost accounting and audit system is of great importance in increasing the efficiency of the enterprise's activities. This article provides information on improving cost accounting and auditing in textile enterprises in the context of the transition to international standards.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ xalqaro standartlar, to'qimachilik korxonalarini, global iqtisodiyot, korporativ boshqaruv, moliya, xarajatlar, audit, mahsulotlar, xomashyo.
❖ international standards, textile enterprises, global economy, corporate governance, finance, costs, audit, products, raw materials.

Kirish.

Global iqtisodiyotning rivojlanishi va xalqaro bozorlar bilan integratsiya jarayoni ko'plab sohalarida, xususan to'qimachilik sanoatida yuqori talablar va standartlarni

qabul qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda. O'zbekistonning to'qimachilik korxonalarini uchun xalqaro standartlarga o'tish nafaqat mahsulot sifati va raqobatbardoshligini oshirish, balki ichki boshqaruv tizimlarini ham

takomillashtirishni talab qiladi. Ayniqsa, xarajatlar hisobi va auditi sohalarida zamonaviy xalqaro standartlarga moslashish korxonalarining o'z resurslarini samarali boshqarishi, moliyaviy barqarorligini ta'minlashi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

To'qimachilik sanoati O'zbekiston iqtisodiyotida katta o'rin tutuvchi soha bo'lib, undagi ishlab chiqarish jarayonlari murakkab va ko'p bosqichlikdir. Shu bois xarajatlarni aniq va puxta hisoblash, shuningdek, moliyaviy yo'naltirish hamda tekshirish jarayonlarini auditi amalga oshirish zarurati tug'iladi. Xalqaro standartlarga muvofiq moliyaviy hisob-kitoblarni yuritish korxonalarga nafaqat ichki boshqaruvni kuchaytirish imkonini beradi, balki investorlar, hamkorlar va xalqaro tashkilotlar oldida ishonchni yanada oshiradi. Shuningdek, xalqaro standartlarga o'tish jarayonida to'qimachilik korxonalarida xarajatlar hisobi va auditining takomillashtirilishi amaliyotda duch kelinayotgan muammolar va kamchiliklarni bartaraf etishga ham xizmat qiladi. Bu sohada yangi yondashuvlar, ilg'or usullar va texnologiyalarni joriy etish orqali moliyaviy nazorat va hisob-kitob jarayonlari yanada shaffof va aniq bo'ladi. Natijada, korxona faoliyati samaradorligi oshib, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyati kengayadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

MHXS (Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari) - bu xalqaro standartlar to'plami va ular uchun ajralmas ilovalar, moliyaviy hisobotlarni shakllantirishning kontseptual tamoyillari va dunyoning eng rivojlangan mamlakatlarida buxgalteriya hisobi va auditning asosini tashkil etadi. Bugungi kunda barcha mamlakatlar jahon maydoniga qadam qo'yishga hamda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga harakat qilmoqda. Shu munosabat bilan 150 dan ortiq davlatlar hozirda MHXSdan o'z moliyaviy holati haqida aniqroq ma'lumot taqdim etish uchun foydalanishmoqda.

Iqtisodchi olimlar A.A.Karimov, M.Rahimov, I.Qo'ziyevlar (2020) MHXS ga o'tishning istiqbollari, A.Z.Avloqulov (2020) moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotlarni yuritish to'g'risida izlanishlar olib borishgan [1].

Iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent S.N.Tashnazarov (2019) doktorlik dissertatsiyasida (DSc) hisob va hisobotni xalqaro standartlar talablariga muvofiqlashtirish, va shu asosida moliyaviy hisobotning dunyo miqyosida garmonizatsiyasiga erishish, ilg'or tajribalardan milliy darajada samarali foydalanish zarurligi to'g'risida chuqur o'rganish va tahlillar olib borgan [2].

Xarajatlar hisobi tizimining takomillashuvi korxonaning moliyaviy holatini aniqroq ko'rsatish imkonini beradi. To'qimachilik korxonalarida ishlab chiqarishning turli bosqichlarida ko'plab xarajatlarni qamrab oladi. Xomashyo xarajatlaridan tortib, ishchi kuchi, energiya, xizmatlar va boshqa ustama xarajatlarga qadar barcha xarajatlarni tizimli ravishda hisobga olish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu jarayonning yuqori darajada tashkil etilishi rahbarlarga to'g'ri moliyaviy qarorlar qabul qilish, resurslarni samarali taqsimlash va iqtisodiy xavflarni oldindan aniqlash imkonini beradi. Shu sababli xarajatlar hisobi va boshqaruvi sohasi nafaqat hisobchilar, balki barcha menejerlarning ham dolzarb e'tibori ostida bo'lishi lozim. Audit tizimini takomillashtirish esa korxonaning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiluvchi muhim tarkibiy qismidir. Auditorlik jarayoni moliyaviy hisoblarning haqqoniyligini, ichki nazorat tizimining samaradorligini va tashqi muhit talablariga mosligini ta'minlaydi. To'qimachilik korxonalarida audit natijalari asosida kutilmagan xarajatlar va moliyaviy yoshirish holatlari kamayadi, bu esa investorlar, moliyaviy tashkilotlar va boshqa manfaatdor tomonlarga kompaniyaning

ishonchliligini ko'rsatadi. Shu sababli xalqaro standartlarga o'tgan korxonalar auditorlik jarayonlarini yanada professional va shaffof qilib tashkil etishi talab etiladi [3].

Tadqiqot metodologiyasi.

Xalqaro standartlar o'z ichiga nafaqat moliyaviy hisobot berish qoidalarini, balki korxona boshqaruvi, ichki nazorat, risklarni boshqarish hamda shaffoflikni oshirish mezonlarini ham oladi. To'qimachilik korxonalari ushbu talablarni bajargan holda global bozorda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Xarajatlar hisobining takomillashuvi natijasida ishlab chiqarish jarayonlarining har bir bosqichi aniq va samarali tahlil qilinadi, bu esa korxona ichki resurslarini oqilona boshqarish uchun asos yaratadi. Shu bilan birga audit tizimidagi yangilanishlar kompaniyaning moliyaviy hisobotlari sifatining oshishiga va uning bozor ishtirokchilariga ishonch bag'ishlashiga xizmat qiladi.

To'qimachilik sanoatidagi xarajatlar hisobining an'anaviy tizimlari ko'pincha eskirgan metodologiya va axborot texnologiyalari yetishmovchiligi sababli samaradorligini yo'qotgan. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda axborot tizimlarini joriy etish va avtomatlashtirish xarajatlarni real vaqtda kuzatib borish imkonini beradi, bu esa korxona boshqaruvida yanada chuqur va tezkor tahlillarga zamin yaratadi. Bunda xarajatlarning aniq segmentlarga ajratilishi – xomashyo, ishchi kuchi, ishlab chiqarish ustamasi, marketing va sotuvga yo'naltirilgan xarajatlar – har birini alohida boshqarish imkonini beradi. Bu esa qaror qabul qilish jarayonini samaraliroq va o'z vaqtida bajarilishini ta'minlaydi. Auditorlik sohasida ham yangi texnologiyalar, jumladan raqamli texnologiyalarning keng qo'llanilishi jarayonlarni tezlashtirib, inson omili tufayli yuzaga keladigan xatoliklarni kamaytiradi. To'qimachilik korxonalarida auditorlik jarayonini yaxshilash uchun ichki audit tizimini

rivojlantirish, nazorat mexanizmlarini kuchaytirish va mustaqilligini ta'minlash muhim vazifalardir. Auditorlar nafaqat moliyaviy hisobotlarni tekshirish bilan cheklanmasdan, balki risklarni baholash va korxona faoliyatining samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar berishi zarur. Shu tarzda auditorlik faoliyati korxona boshqaruvining muhim tarkibiy qismiga aylanadi [4].

Tahlil va natijalar muhokamasi.


Xalqaro standartlarga o'tish sharoitida to'qimachilik korxonalarida xarajatlar hisobi va auditini takomillashtirish mavzusida tahlil va natijalarni batafsil ko'rib chiqishda, birinchi navbatda O'zbekiston to'qimachilik sanoatining so'nggi yillardagi rivojlanishi va mavjud iqtisodiy holatini hisobga olish zarur. So'nggi statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilda O'zbekistonda to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8,2 milliard dollarga yetgan. Bu ko'rsatkich yetti yil oldingiga nisbatan 4,2 barobar o'sishni anglatadi, bu esa sohaning tez sur'atlarda rivojlanayotganini ko'rsatadi.

Sanoatning kengayishi ish bilan ta'minlanganlar sonining ham ortishiga olib kelgan bo'lib, hozirda to'qimachilik bo'yicha 570 mingdan ortiq xodim faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkichlarning oshishi ehtimoliy ravishda xarajatlar hajmining ham sezilarli o'sishiga olib kelgan. Shu bilan birga, sohaning eksport hajmi ham oshib, 3,1 milliard dollarga yetgan va mahsulotlar 83 mamlakatga eksport qilinmoqda. Bu natijalar tarmoqdagi firmalar uchun xalqaro me'yorlarga mos sifat nazorati va moliyaviy hisobot tuzish tizimlarining zaruratini yanada kuchaytiradi. Xarajatlar hisobi sohasida tahlil shuni ko'rsatadiki, to'qimachilik korxonalari uchun xarajatlarni aniq segmentlarga ajratib, ularni boshqarish samaradorligini oshirish eng muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Xomashyo xarajatlari, ishchi kuchi bilan bog'liq va umumiy ishlab chiqarish ustamasi xarajatlari kabi asosiy kategoriyalarni alohida boshqarish

tizimidagi ma'lumotlarning aniqligini ta'minlaydi. Yangi xalqaro standartlarga o'tishda integratsiyalashgan axborot tizimlarini joriy qilish orqali xarajatlarni real vaqtda nazorat qilish imkoniyati paydo bo'ladi, bu esa tarmoqlar o'rtasidagi raqobatdosh ustunliklar yaratishda muhim ahamiyatga ega [5].

Auditorlik faoliyatining rivojlanishi to'qimachilik sohasida moliyaviy barqarorlik va shaffoflik darajasini oshirishga xizmat qiladi. O'zbekiston to'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida auditorlik jarayonlari takomillashtirilgani natijasida moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligini ta'minlash darajasi oshdi. Auditorlik amaliyotlarining mustaqilligi va professional darajasi yaxshilangan, bu esa investorlarga va tashqi moliyaviy tashkilotlarga kompaniyaning ishonchliligini ko'rsatadi. So'nggi yillarda to'qimachilik sanoatiga kiritilgan investitsiyalar hajmi sezilarli ravishda oshib, sohada 3,3 milliard dollar investitsiya amalga oshirilgan, jumladan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 84,3 million dollarga yetgan. Bu ma'lumotlar korxonalar moliyaviy va hisob-kitob tizimlarini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratayotganini isbotlaydi. Shuni ham

ta'kidlash joizki, to'qimachilik tarmog'ida yangi xalqaro talablar asosida ichki nazorat tizimlari takomillashtirilmoqda. Korxonalar butun ishlab chiqarish zanjirida xarajatlarni nazorat qilish, risklarni aniqlash va boshqarish imkoniyatini oshirayotgan texnologiyalarni joriy qilishga katta resurslar sarflamoqda. Bu esa, o'z navbatida, moliyaviy hisob-kitoblarning aniq va tezkor bo'lishini ta'minlaydi, boshqaruv qarorlarini yanada ishonchli qiladi. Shu bilan birga, auditorlik ishlarini to'liq raqamlashtirish va avtomatlashtirish orqali inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklar kamayishi kuzatilmoqda. Bozorda jadal o'sib borayotgan raqobat sharoitida to'qimachilik korxonalari uchun xarajatlarni boshqarish tizimini samarali tashkil etish va internatsional auditing standartlariga moslashtirish kelgusidagi muvaffaqiyat kalitidir. Real vaqt rejimida xarajatlarni boshqarish va foizli rentabellikni aniq baholash kompaniyaning strategik rivojlanish yo'nalishlarini aniq belgilashga yordam beradi. Auditorlik jarayonlarining takomillashtirilishi esa moliyaviy barqarorlik va ochiqlikni mustahkamlaydi, bu holat esa sarmoyadorlar, mijozlar va boshqa manfaatdor tomonlarning ishonchini oshiradi.



1-rasm. Xalqaro standartlarga o'tish sharoitida to'qimachilik korxonalarida xarajatlar hisobi va auditini takomillashtirishda budjetlashtirish va uning korxona faoliyatida tutgan o'rni [6]

Xalqaro standartlarga o'tish jarayonida to'qimachilik korxonalarining hisob-kitob tizimini takomillashtirish muhim vazifa

sifatida ko'rilmoqda. Ushbu muhitda xarajatlar hisobi va audit tizimining samaradorligini oshirishda budjetlashtirishning o'rni alohida

ahamiyat kasb etadi. Budjetlashtirish korxona faoliyatining strategik boshqaruvi hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning asosi sifatida ko'riladi. Bu jarayon to'qimachilik korxonalarida samarali resurslardan foydalanishni, xarajatlarni optimallashtirishni va moliyaviy nazoratni kuchaytirishni ta'minlash uchun yuzaga kelgan yangi shart-sharoitlarda muhim vosita hisoblanadi. Budjetlashtirish tizimi korxonaning kelgusidagi moliyaviy va iqtisodiy faoliyatini rejalashtirishga, xarajatlarni aniq nazorat qilishga va moliyaviy oqimlarni samarali boshqarishga xizmat qiladi. To'qimachilik sanoatida esa xarajatlarning aniq monitoringi va nazorat qilinishi mahsulot tannarxining pastligini ta'minlash, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatlarini oshirish uchun zarurdir. Xalqaro standartlarga asoslangan hisob-kitob tizimiga o'tishda budjetlashtirish eng muhim o'rin tutadi, chunki u xarajatlar mexanizmini batafsil tahlil qilish hamda moliyaviy ko'rsatkichlarning aniq prognozini tuzish imkonini beradi. Korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun budjetlashtirish vositalari xarajatlarni tartibga solib, xarajatlarning qaysi sohalarga qancha sarflanishini oldindan belgilashga imkon yaratadi. Shu bilan birga, budjetlar korxonada mavjud resurslardan oqilona va maqsadli foydalanishni nazorat qilish, moliyaviy resurslarning taqsimlanishini rejalashtirishning samarali mexanizmi hisoblanadi. Bu jarayonda moliyaviy cheklovlar va tashqi bozor sharoitlaridan kelib chiqqan holda strategik qarorlar qabul qilinadi.

Xarajatlar hisobi va auditidagi budjetlashtirish korxonaning samaradorligini oshirishga qaratilgan moliyaviy boshqaruv texnologiyasi sifatida ham qaraladi. Budjetlar yordamida korxona rahbariyatiga mahsulot ishlab chiqarish jarayonidagi xarajatlarni kamaytirish, iste'mol qilinadigan material va xizmatlar bo'yicha xarajatlarni optimal darajada ushlab turish uchun yo'l-yo'riqlar beriladi. Shu tarzda, budjet tizimi korxonaning

ishlab chiqarish jarayonidagi har bir qadamni moliyaviy jihatdan tahlil qilishga imkon yaratadi va natijada korxona mahsulotining tannarxini pasaytirishga ko'maklashadi. Xalqaro standartlarga mos keladigan budjetlashtirish korxonada ichki nazoratni kuchaytiradi va audit jarayonlarini yanada shaffoflashtiradi. Budjetlarning ittifoqi sifatida ichki audit ham xarajatlarning me'yoriy va istiqbolli ko'rsatkichlarga muvofiqligini tekshiradi, moliyaviy xatoliklar va firibgarlik holatlarining oldini oladi. Bu esa korxona faoliyatida xavfsizlik tizimini mustahkamlash va investitsiyalarni jalb qilish uchun ijobiy muhit yaratadi. Shuningdek, mutaxassislar tomonidan budjet jarayoni samaradorligi muntazam tahlil qilinib, kerakli o'zgartirishlar va takomillashtirishlar kiritiladi. Budjetlashtirish jarayoni to'qimachilik korxonasining umumiy moliyaviy strategiyasiga mos ravishda amalga oshiriladi, bu esa korxonaning uzoq muddatli rivojlanish uchun zarur bo'lgan manbalarni belgilash imkonini beradi. Korxona rahbarlari budjet ma'lumotlarini moliyaviy rejalashtirishning asosiy vositasi sifatida qo'llab, strategik va operatsion qarorlarni aniqlik bilan qabul qiladi. Shu bilan birga, budjet tizimi monitoring va hisobot tizimini ham takomillashtirib, moliyaviy natijalarni real vaqtda kuzatish imkonini beradi. Budjetlashtirishning yana bir muhim jihati korxonadagi barcha bo'limlar va bo'linmalar o'rtasida moliyaviy ma'lumotlar almashinuvi va hamkorligini kuchaytirishga xizmat qilishi hisoblanadi. Bu esa har bir departamentning o'z vazifalarini aniq tushunishi, o'zaro muvofiqlik va maqsadga yo'naltirilgan faoliyatni ta'minlashga yordam beradi. Korxonaning xalqaro standartlarga o'tish jarayonida budjetlashtirishning roli nafaqat moliyaviy boshqaruvda, balki strategik intizomni shakllantirishda ham namoyon bo'ladi. Xalqaro standartlarga mos keladigan budjet tizimi korxonani global bozorlarga yanada jozibador qiladi, chunki investorlar va moliyaviy tashkilotlar hisob-kitoblarning

aniqligi va shaffofligini yuqori baholaydi. Shu bois, samarali budjet tizimi korxonaning raqobatbardoshligini oshiradi va moliyaviy resurslarni optimal boshqarishga zamin yaratadi [7].

Ta'kidlash lozimki, to'qimachilik sanoati o'ziga xos tarmoqlardan biri bo'lib, unda ishlab chiqarish jarayonlarining ko'pligi va murakkabligi xarajatlar hisobi tizimining takomillashtirilishini talab qiladi. Shu munosabat bilan, budjetlashtirish tizimi sanoatning turli bo'limlaridagi xarajatlarni ajratish, ularni qattiq nazorat qilish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun zaruriy vosita hisoblanadi. Ayniqsa, ishlab chiqarish jarayonida xomashyo, materiallar, ish haqi va boshqa xarajatlar ustidan batafsil nazorat o'rnatish imkonini beradi. To'qimachilik korxonalarida budjetlashtirish jarayonining muhim tomoni bu xarajatlar bo'yicha standartlashtirish va yagona tizimni yaratishdan iboratdir. Xalqaro standartlarga moslashuvda xarajatlarni aniqlik bilan tasniflash, ularning to'g'ri hisobga olinishi, shu jumladan ishlab chiqarish va boshqaruv xarajatlarini aniq ajratib ko'rsatish talablari yuqori darajada ahamiyatga ega. Bu esa moliyaviy audit jarayonlarini soddalashtiradi va hisobotlarning haqqoniyligini ta'minlaydi. Budjetlashtirish korxona rahbariyatiga moliyaviy risklarni kamaytirish va muvozanatli moliyaviy siyosat yuritish imkoniyatini beradi. Raqobatbardosh bozorda faoliyat olib borayotgan to'qimachilik korxonalari uchun moliyaviy barqarorlikni saqlash, xarajatlarni samarali boshqarish aynan budjet tizimi orqali amalga oshiriladi. Hisob-kitoblarning aniq va shaffof bo'lishi esa investorlarning ishonchini oshiradi, bu esa korxona uchun qo'shimcha moliyaviy manbalarni jalb qilishga xizmat qiladi. Korxonada budjetlashtirish jarayonining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun avvalo korxonaning ichki boshqaruv tizimi takomillashtirilishi, hisob-kitobning sxemalari va metodologiyalari xalqaro standartlarga

moslashtirilishi zarur. Shuningdek, moliyaviy va iqtisodiy tahlilchilarni doimiy ravishda malaka oshirish yo'li bilan yangilash va yangi innovatsion uslublar joriy etilishi muhimdir. Bu esa budjet tizimi samaradorligini yanada oshirishga, korxonaning barcha faoliyat yo'nalishlarini yagona moliyaviy strategiya doirasida birlashtirishga imkon beradi.

To'qimachilik korxonalarida xalqaro moliyaviy hisoblash standartlariga o'tish jarayonida budjetlashtirish tizimini takomillashtirish korxona faoliyatining barqarorligi va samaradorligini ta'minlash uchun muhim shartlardan biri bo'lib xizmat qiladi. Bu jarayon korxonaning moliyaviy nazoratini kuchaytirish, xarajatlarni ratsional boshqarish, shuningdek, moliyaviy hisobotlarning aniqligi va ishonchliligini oshirishga yordam beradi. Budjetlashtirish korxonaga raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish, bozorlarda o'z o'rnini mustahkamlash va moliyaviy xatarlarni samarali boshqarish imkonini yaratadi. Shu bois, xalqaro standartlarga o'tishda budjetlashtirishning samarali tashkil etilishi korxonaning istiqbolli rivojlanish strategiyasining ajralmas qismi hisoblanadi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro standartlarga o'tish sharoitida to'qimachilik korxonalarida xarajatlar hisobi va auditorlik tizimini takomillashtirish korxona faoliyatining raqobatbardoshligini oshirish uchun zarurdir. Ushbu jarayon moliyaviy hisobotlarning aniq va ishonchli bo'lishini ta'minlaydi, ichki nazorat va boshqaruv jarayonlarini mustahkamlashga yordam beradi. Shuningdek, u korxonaning uzoq muddatli barqaror o'sishi va bozor talablariga moslashuvchanligini ta'minlaydi. Zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish, auditorlik amaliyotini rivojlantirish va barcha bo'limlar o'rtasida samarali muvofiqlikni ta'minlash bilan xarajatlar hisobi va auditi tizimi nafaqat korxona ichidagi jarayonlarni yaxshilaydi, balki xalqaro

maydonda ham ishonchli hamkor sifatida tanilishiga imkon yaratadi. Shu tariqa, bu sohani yanada takomillashtirish orqali to'qimachilik tarmog'ining mavjud imkoniyatlari kengayib, milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shiladi.

Xalqaro standartlarga o'tish sharoitida to'qimachilik korxonalarida xarajatlar hisobi va auditini takomillashtirish masalasi korxonaning samaradorligini oshirish, moliyaviy nazoratni kuchaytirish va natijalarni haqqoniy baholash uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayonda xalqaro moliyaviy hisoblash va hisoboti standartlari asosida xarajatlar hisobi tizimini rivojlantirish bir necha muhim elementlarni o'z ichiga oladi. Dastlab, xarajatlar hisobining aniqligi va to'liqligini ta'minlash uchun korxonada to'liq va hisobga olish tizimi joriy qilinishi shart. Bunda xarajatlarni to'g'ri tasniflash, ularni maqsad va manbalar bo'yicha aniq ajratish muhimdir. Xarajatlar turlicha bo'lishi mumkin, jumladan, asosiy ishlab chiqarish xarajatlari, boshqaruv xarajatlari, sotish xarajatlari va boshqa qo'shimcha xarajatlar. Xalqaro standartlarga muvofiq, har bir xarajat turi uchun maxsus hisobvaraqlar ochilishi va xarajatlar ularning xususiyatiga qarab toifalangan bo'lishi kerak. Keyin, xarajatlarning boshqaruv hisobi tizimini takomillashtirish zarur. Bu xarajatlarni

rejalashtirish, nazorat qilish va tahlil qilish jarayonlarini o'z ichiga oladi. To'qimachilik korxonalarida xomashyo, ishchi kuchi, energiya resurslari va boshqa ishlab chiqarish elementlari xarajatlarini aniqlik bilan hisoblash va monitoring qilish orqali samaradorlikni oshirish mumkin. So'ngra, audit tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish va mustahkamlash zarur. Bu borada ichki va tashqi auditning roli juda kattadir. Ichki audit orqali korxona ichidagi moliyaviy jarayonlarning qonuniyligi va samaradorligi doimiy ravishda tekshirilishi kerak. Audit jarayonida xalqaro audit standartlariga rioya qilish uni yanada ob'ektiv va ishonchli qiladi. Tashqi audit esa korxonaning moliyaviy hisobotlarini mustaqil ekspertlar tomonidan baholash imkonini beradi, bu esa investorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun ishonchni oshiradi. Yuqoridagi takliflarga amal qilgan holda, to'qimachilik korxonalarida xarajatlar hisobi va audit tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish va takomillashtirish mumkin. Bu esa korxonaning raqobatbardoshligini oshirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va xalqaro bozorlar bilan samarali aloqalarni yo'lga qo'yishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Natijada, innovatsiyalar va zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish orqali to'qimachilik sanoatining yanada rivojlanishiga hissa qo'shiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Raximova G.M. "MHXS globallasuvi: standartlashtirishning jahon tajribasini tahlil qilish (birinchi turkum)". "Moliya va bank ishi" elektron jurnali. № 5, 2020-yil, 39-bet.
2. A. Karimov, I. Qo'ziyev, M. Rahimov. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish: muammo va istiqbol "Xalqaro ilmiy moliya va hisob" jurnali. № 4, avgust, 2020-yil 3-bet.
3. Avloqulov A.Z. "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida moliyaviy natijalar to'g'risidagi axborotlarni aks ettirish xususiyatlari. Raqamli iqtisodiyotga o'tish davrida buxgalteriya hisobi va auditni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish masalalari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. T.: 2020. 243-bet.
4. Axmadjonov K., I.Yakubov. "Audit asoslari". Darslik. -T.: Iqtisod-moliya, 2009-yil.
5. Шеремет А.Д., Сүс Б.П. «Аудит». Учебник. – М.: ИИФРА-М, 2008.
6. Vilakazi S. P., Stainbank L. J., Nyide C. J. The adoption of management accounting practices by small and medium clothing and textile entities in an emerging market //Journal of Management Information & Decision Sciences. – 2020. – T. 23.
7. Tashnazarov S.N., Tashnazarova D.S. "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari". Ma'ruza matni. SamISI, 2018-yil. 421-b.